



Theoretical issues of national identity in translation

Gulkhayo KHAYDAROVA¹

Turan International University

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

15 November 2024

Keywords:

nationality,
characteristic words,
originality,
text translation,
adequate,
transcription,
interpretation.

ABSTRACT

In translation theory, ensuring that national characteristics are fully and accurately conveyed is a key area of research. Each nation possesses its own culture, traditions, and national mindset, all of which are communicated through language. This article examines the theoretical foundations of conveying national characteristics in translation and discusses practical methods for transferring them into another language. It also analyzes how these national characteristics are rendered in English, with a particular focus on the novel *Bygone Days*.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss6-pp192-196>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tarjimada milliy xoslikning nazariy masalalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

milliylik,
xos so'zlar,
asliyat,
matn tarjima,
adekvat,
transkripsiya, izohlash.

Tarjima jarayonida milliy xususiyatlarni to'liq va aniq ifodalash masalasi tarjima nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Har bir xalqning o'ziga xos madaniyati, urf-odatlar va milliy tafakkuri mavjud bo'lib, bu xususiyatlar til orqali ifodalanadi. Ushbu maqola tarjimada milliy xususiyatlarning nazariy asoslarini o'rganadi va ularni boshqa tilga o'tkazishning samarali usullarini muhokama qiladi. Mazkur maqolada milliylikka xos bo'lgan so'zlar, xususan, "O'tkan kunlar" romanidagi realiyalarning inglizcha tarjimada berilishi tahlil qilinadi.

¹ Master's Student, Turan International University. E-mail: gulhayohaydarova@gmail.com

Теоретические вопросы национальной идентичности в переводе

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

национальность,
характерные слова,
оригинальность,
перевод текста,
адекватный,
транскрипция,
интерпретация.

Исследование полноты и точности передачи национальных особенностей в процессе перевода является одним из ключевых аспектов теории перевода. Каждый народ обладает уникальной культурой, традициями и спецификой мышления, которые находят отражение в языке. В данной статье рассматриваются теоретические аспекты передачи национальных особенностей при переводе и обсуждаются методы их эффективного воспроизведения на другом языке. Особое внимание уделено анализу передачи национальных особенностей в английском языке на примере романа «Минувшие дни».

Badiiy matnlardagi milliylikka xos bo'lgan so'zlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda tarjimonlar yuqorida ta'kidlaganimizdek, ayrim o'rinlarda xos so'zlarni tarjima qilinsa, boshqa o'rinlarda transliteratsiya yo'li bilan berib, havola qoldiradilar. Demak, milliy xos so'zlar tarjimasi nafaqat amaliy xarakterga ega bo'lgan masala, balki nazariyaning ham "og'riqli" muammosi hisoblanadi. Shu o'rinda badiiy asarlar tarjimasida tarjimonlar sa'y-harakatlari bilan asliyatga yaqinlashishga erishiladi. Tarjimada milliylikni berish masalasida ekvivalentlik va adekvatlik masalasi ham muhim ahamiyat kasb etuvchi masalalardan hisoblanadi. Albatta, ekvivalentlik va adekvatlik masalasida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va bu borada turlicha qarashlar mavjud. Masalan, V.N. Komissarovga ko'ra, ekvivalent – bir nutq birligi bajaradigan funktsiyani bajara oladigan boshqa nutq birligidir. "Ekvivalentlik hozirgi tarjimashunoslikning markaziy tushunchalaridan biri bo'lib, tarjimaning muhim xususiyatlarini ochib beradi" [1;134].

Tarjimada ekvivalentlik masalasida S. Vlastov asliyat tili va tarjima tili o'rtasidagi til birliklarining ma'no jihatdan o'xshash bo'lishligini ta'kidlaydi [1;8]. A.O. Ivanov manba til birlamchi birliklarining kontekst doirasida barcha komponent-larning biron-bir variantining funksional mutanosibligini ko'zda tutgan [2;181], R. Levitskiy esa ekvivalentlik va adekvatlik atamalarini bir-biri o'rniga ishlatish mumkin deb hisoblaydi [3;3]. V.G. Kostomarov adekvat tarjimaning to'laqonli tarjima ekanligi, ekvivalentlikni esa birliklarning mazmun jihatdan umumiyliqi sifatida tushunilishi kerakligini aytadi. Aslini olganda badiiy asarning mazmun-mohiyatini, milliyligini, muallif uslubini tarjima tilida saqlagan holda tarjima tilida qayta yaratishni mukammal tarjima deyish mumkin. Bu borada tadqiqot olib borgan Xomidov Xayrillo Xudoyorovich "O'zbek qissa va romanlarining turkcha tarjimalarida milliylik, badiiylik va lisoniy adekvatlik masalalari" nomli tadqiqot ishida aynan milliylikni tarjimada aks ettirish borasida quyidagi fikrlarni bildiradi va misollar keltiradi: "Badiiy asarning milliyligini belgilaydigan asosiy vositalardan biri milliy xos so'zlar, ya'ni realiyalar bo'lib, ularning tarjimada to'g'ri berilishi original asarning milliy to'qimasini o'zga tilda beshikast qayta yaratilishini ta'minlaydi. Darhaqiqat, bir xalq turmush tarzi, dunyoqarashi, narsa va predmetlarni atashdagi o'ziga xosligi boshqa xalqlarnikidan farq qiladi" [4;18].

Taniqli bolgar olimlari S. Vlastov va S. Florinlar ta'biriga ko'ra, "realiya" -nafaqat

faktlar, hodisalar, buyumlar, balki ularning nomlari bo'lgan so'z va so'z birikmalari ham nazarda tutiladi [5;432-456]. Yuqorida ta'kidlanganidek, realiyalarni ifoda etuvchi tushunchalar milliy xarakterga ega bo'lganligi bois ayrim o'rinlarda ularni "muqobilsiz leksika" deb ham nomlanadi. Muqobilsiz leksikaga E.M. Vereshagin va V.G. Kostomarovlar quyidagicha ta'rif berganlar: "O'zga madaniyat va o'zga tilda mavjud bo'lmagan tushunchalarni anglatuvchi so'zlar, boshqa tilga bir so'z bilan tarjima qilib bo'lmaydigan, tarjima tilida muqobili bo'lmagan so'zlar muqobilsiz leksikadir" [6;53].

Albatta, badiiy asarlar tarjimasida milliylikni saqlab qolish, asliyat matni egasi bo'lgan xalqning tarixi, o'ziga xosligi, urf-odatlar, o'ziga xos joy manzaralari – barchasi tarjima matnida o'z xususiyatlarini yo'qotmagan holda aks etishi kerak. Buning uchun, avvalo tarjimon tarjima nazariyasi qonun-qoidalari asosida ish yuritadi. Ana shunday nazariy qoidalar haqida so'z borganda V. Fedorov realialar tarjimasining quyidagi usullarini ko'rsatib o'tadi:

1. To'la va qisman transliteratsiya;

2. U yoki bu predmetni anglatuvchi tushuncha uchun yangi so'z, so'z birikmasi yoki qo'shma so'zni yaratish;

3. Yaqin ma'noli so'zni qo'llash [7; 139].

Bu borada S. Vlastov va S. Florinlar quyidagi tarjima usullarini tavsiya etadilar:

1. Transkripsiya;

2. Kalkalash (so'zning bir qismini tarjima qilib, bir qismini o'z holida, hech qanday o'zgarishsiz o'zlashtirish);

3. Semantik muvofiqlik asosida yangi so'z yoki so'z birikmasini yaratish;

4. O'zlashtirish;

5. Yaqin tarjima;

6. Tavsifiy tarjima [5; 432-456].

Realialar tarjimasini tamoyillari borasida S.Vinogradov quyidagi usullarni tavsiya etadi:

1. Transkripsiya (transliteratsiya). Bunda tarjima jarayonida uchragan realiya aynan o'zi keltiriladi va tarjima matni sahifa ostiga yoki tarjima matni yakunida izohlar beriladi;

2. Giponomik tarjima. Bunda asliyat matnida uchragan realiya anglatgan ma'nosiga ko'ra tarjima matnida shunga yaqin ma'no anglatuvchi muqobil so'z yoki ibora bilan muqobillik munosabati o'rnatiladi;

3. Moslashtirish usuli. Bu o'z nomi bilan moslashtirish yoki tenglashtirish ma'nosini bildiradi. Tarjimon asliyat matnidagi realiyaga mos bo'lgan muqobilini topadi. Giponomik tarjima usulidan farqli tomoni shundaki, bunda asliyat matnidagi realiyaga tarjima tilida aynan muqobili topib qo'yiladi.

4. Perifrastik (tavsifiy, deskriptiv, eksplikativ) usuli. Asliyat matnidagi realiyaning tarjima matnida ma'nosi izohlab beriladi [8;101-102].

Realialar tarjimasini usullari borasida taniqli tarjimashunos olimlarning fikrlari bilan tanishib chiqar ekanmiz, bu borada B.S. Vinogradov tavsiya etgan tarjima usullari realiyalarni tarjima qilishda maqbul usullar deb hisoblaymiz. Chunki, ushbu tarjima tamoyillar asliyat matnida zohir bo'lgan realiyaning tarjima matni o'quvchisiga tushuntirishning barcha usullarini o'zida qamrab olgan.

Ko'p o'rinlarda realiyalarni xos so'zlar deb ham yuritiladi. Bu borada o'zbek

tarjimashunos olimi K. Jo'rayev quyidagi fikrlarni bildiradi:

“Realiya – xos soʻzlar, koʻp oʻrinlarda tarjimaga boʻysunmaydigan leksikadir. Bundan, albatta, milliy koloritni, davr ruhini berish uchun asliyatdagi soʻzlarni tarjima qilmay qoldiraverish mumkin, degan xulosaga kelmaslik kerak. Aksincha, tarjima asarida asl nusxadagi soʻzlar tez-tez uchrayversa, tarjima yutqazadi, kitobxonni oʻzidan sovitadi” [9; 49].

Yuqoridagi tavsiyalar va nazariy fikrlardan kelib chiqadiki, badiiy tarjima nazariyasi amalda realaiyalarni bir tildan ikkinchi bir tilga oʻgirish, yoki maʼnosini aks ettirish uchun bir qator usullarni – tarjima tamoyillarini tavsiya etar ekan, ushbu usullardan toʻgʻri, oʻz oʻrnida foydalana bilish ham tarjimon oldidagi masalalardan biri hisoblanadi. Badiiy asar tarjimasi masalasida koʻndalang boʻluvchi masalalarni jamlagan holda tarjima sharti deb oladigan boʻlsak, ana shu shart – asliyat matnining badiiy oʻziga xosligi, uning milliy xususiyatlari, asliyat muallifining individual oʻziga xos uslubi va tarjima matni oʻquvchisi kim ekanligini inobatga olish kabilardir.

Tarjima jarayonida milliylikni aks ettirishda asosiy maqsadlardan biri milliy manzarani tarjima tilida qayta yaratishdan iborat boʻladi. Bir soʻz bilan aytganda milliy manzara deganda bir millatga taalluqli boʻlgan adabiyotda aks ettirilgan voqea-hodisalarni ifodalashda asliyat muallifi tasvirlagan makon, zamon, ijtimoiy-madaniy hayot, tabiat manzarasi va boshqa barcha tasvirlar tushuniladi. Bu borada tadqiqot olib borgan G. Kendjaeva oʻzining “Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romani tarjimalarida milliy manzaraning lingvomadaniy ifodasi (asliyat va M. Safarov, K. Yermakova, M. Riiz tarjimalari asosida)” nomli tadqiqot ishida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Milliy manzara” – bu faqat maʼlum bir millat uchun xarakterli boʻlgan, ularning koʻpchilik vakillari tomonidan oʻzlashtirilgan va ushbu milliy hamjamiyat tilida aks ettirilgan ijtimoiy-madaniy maʼlumotlardir. Shuningdek, muayyan tilda oʻz aksini topgan xalq yoki millatning milliy, ijtimoiy, tarixiy va madaniy xususiyatlari yigʻindisi. Aynan shuning uchun ham tarjimada asl nusxaning milliyligini saqlab qolishi, avvalam bor, milliy manzaraning toʻgʻri idrok etilishi va yetkazilishiga bogʻliq” [10; 13].

Milliylik u yoki bir millatning maʼnaviy faoliyati va moddiy hayotidagi oʻziga xosligini ifodalar ekan, kishilarning xarakteri, tafakkuri, ruhiyati, intilishlari, qiliqlari, yumor xususiyatlari va boshqalar esa maʼnaviy hayotni bildiruvchi belgilardir. Moddiy hayot esa urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, kiyimlar, uy roʻzgʻor buyumlari, cholgʻu asboblari, pazandachilik, ismlar va boshqalarni oʻz ichiga oladi. Bular barchasi bir boʻlib badiiy asarda zohir boʻladi va adabiyotshunoslik nuqtai-nazaridan milliy kolorit deb nomlanadi. Milliy kolorit bilan bogʻliq boʻlgan soʻzlar atamalar, realiyalar, boshqacha qilib aytganda milliy xos soʻzlar deyiladi. Realialar asar tilining ajralmas qismi boʻlib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi.

Qudrat Musayev xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan soʻzlarni xos soʻzlar deb ataydi. U muayyan bir xalq, millat va elatga xos tushuncha, narsa va hodisalarni aks ettiradigan soʻzlar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan biri deb hisoblaydi [12; 89]. Realialarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholgʻu asboblari, roʻzgʻor anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, meʼmorchilik, geografik nomlar, daraja, unvon, tabaqa va h.k. boʻlinishlarni ifodalovchi soʻzlar, muassasa, tashkilot, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi soʻz va iboralar kiradi.

“Taom nomlarini talqin etish ham tarjimondan katta masʼuliyat talab qiladi. Har bir

xalqning bobomeros milliy taomlari boshqa xalqlarnikidan nafaqat tayyorlanish usuli, balki mazasi hamda ko'rinishi bilan ham farq qiladiki, tarjima jarayonida aslyatda tilga olingan taom nomini tarjima tili sohiblari iste'mol qiladigan taom nomlari bilan almashtirib qo'yish ham, uni biror tasviriy vositasiz transliteratsiya qilish ham kitobxonga aslyat sohibi taomi haqida aniq tasavvur berishiga ojizlik qiladi" [10].

Bizningcha badiiy adabiyotlar tarjimasida milliy o'ziga xoslikni ifodalashda transliteratsiya usuli asosan bir-biridan uzoq bo'lgan, bir oilaga mansub bo'lmagan tillardan tarjima amaliyoti amalga oshirilganda ko'p qo'llaniladi. Chunki, aslyat matnida mavjud bo'lgan moddiy mahsulot yoki joy nomlarining tarjima tilida mavjud ekvivalentlari topilmaydi. Bunday mushkul holatda tarjimon albatta realiyalarni tarjima qilishda tarjimaning transliteratsiya usulidan foydalanadi. Bu hol, birinchidan, ikki xalqning moddiy-ma'naviy hayoti, turmush tarzi, ijtimoiy-rivojlanish darajasi turli bo'lganligi oqibatida kelib chiqqan bo'lsa, realiyalarni tarjima tili o'quvchisiga tushuntirish uchun izohlarni ko'payib ketishi tarjima matnini biroz murakkablashtirib yuborilishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Влахов С. И, Флорин С. П., Непереводимые в переводе, библиотека лингвиста, издание 5-е.–Москва, Р. Валент, 2012. с. 8.
2. Иванов А. О. Безэквивалентная лексика. –М., 2006. –С. 181.
3. Левицкая Т. Р. Проблемы перевода. –М.: Международные отношения, 1976. –С.3.
4. Хомидов Х. Ўзбек қисса ва романларининг туркча таржималарида миллийлик, бадийлик ва лисоний адекватлик масалалари мавзусидаги докторлик диссертацияси автореферати, Тошкент 2021, 18-бет.
5. Влахов С. И, Флорин С.П., Непереводимые в переводе. Реалия. В сб.: Мастерство перевода. 1969. –Москва, 1970. с.432-456.
6. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. – М., 1973. -с.53.
7. Федоров А.В. Введение в теорию перевода. – М., 1953. – С.139.
8. Виноградов В. С. Лексические вопросы перевода художественной прозы. - М.: Издательство МГУ. 1978. стр. 101-102.
9. Жўраев К. Таржима санъати. – Т.: Фан, 1982, – Б.49.
10. Кенджаева Г. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романи таржималарида миллий манзаранинг лингвомаданий ифодаси (аслият ва М.Сафаров, К.Ермакова, М. Рииз таржималари асосида) номли филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Бухоро, 2023, 13-бет.
11. Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. –М.:– Международные отношения, 1980–С.134.
12. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. –В. 89.